



AIFU



МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ ТИЗИМИДА INTEGRATSION YONDASHUVNING АНАМИЯТИ

Dilorom Baxtiyarovna Bazarbayeva
Master's student
University of exact and social sciences
Tashkent, Uzbekistan
E-mail: dilyaxonbaxtiyarovna@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalardan foydalanishda integratsion yondashuvning ahamiyati haqida fikr va mulohazalar keltiriladi. Shuningdek, maktabgacha ta'lim tizimining huquqiy asoslari, sohaga tegishli asosiy tushunchalar sharhi va zamonaviy pedagogik texnologiyalar to'g'risida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim tizimi, ta'lim texnologiyasi, innovatsion texnologiyalar, integratsiya, STEAM texnologiyalari, psixologik xususiyatlar, "smart" tizimlar.

103

ЗНАЧЕНИЕ ИНТЕГРАЦИОННОГО ПОДХОДА В СИСТЕМЕ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация: В данной статье будут представлены мнения и соображения о важности интеграционного подхода к использованию инновационных технологий в системе дошкольного образования. В нем также рассматриваются правовые основы системы дошкольного образования, комментарий к основным понятиям, относящимся к отрасли, и современные педагогические технологии.

Ключевые слова: система дошкольного образования, образовательные технологии, инновационные технологии, интеграция, технологии Steam, психологические особенности, "умные" системы

THE IMPORTANCE OF THE INTEGRATION APPROACH IN THE PRESCHOOL EDUCATION SYSTEM

Abstract: This article will present opinions and considerations on the importance of an integration approach to the use of innovative technologies in the preschool education system. It also discusses the legal foundations of the preschool education system, a commentary on the basic concepts related to the industry, and modern pedagogical technologies.

Key words: preschool education system, educational technologies, innovative technologies, integration, Steam technologies, psychological features, “smart” systems.

Yurtimizda yosh avlodni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash xalqimizning azaliy orzusi bo‘lib, bunda ajdodlarimizning ma‘rifat, ma‘naviyat va madaniyat borasidagi boy merosiga tayaniladi. Shu o‘rinda, Abdulla Avloniyning «Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir»[1; 19], degan so‘zlari shiddat davom etayotgan globallashuv davrida naqadar muhimligini ko‘rsatmoqda. Bola tug‘ilgan kundan boshlab, uni maktabga borgunigacha har tomonlama yetuk qilib tarbiyalash o‘ta mas‘uliyatli bo‘lib, tarbiya va ta‘limning uzviy bog‘liqligini talab etadi. Chunki, inson o‘z umri davomida olgan ma‘lumotlarning 70-80 % qismini 5-7 yoshgacha bo‘lgan davrda oladi. Bu esa maktabgacha ta‘limning naqadar muhimligini ifodalaydi.

Maktabgacha ta‘lim muassasalari jamiyatda barcha tarbiyaviy-ta‘limiy ishlarning dastlabki bo‘g‘ini bo‘lib, bolalarning ilk ko‘nikmalari shu davrda shakllanadi. Ushbu ko‘nikmalar maktabgacha yoshdagi bolalar ongi, tafakkurining rivojlanishiga, ularda atrofdagi voqea hodisalarga nisbatan turlicha munosabatlari shakllanishiga, qiziqishlar hosil bo‘lishiga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Mamlakatimizda maktabgacha ta‘lim va tarbiya – ta‘lim turlaridan biri sifatida ifodalanib, uning huquqiy asoslari yaratilgan. O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonunida “Maktabgacha ta‘lim va tarbiya bolalarni o‘qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma‘naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o‘rta ta‘limga tayyorlashga qaratilgan ta‘lim turidir” deya qayd etilgan[2].

Shuningdek, “Maktabgacha ta‘lim va tarbiya to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasining Qonuni qabul qilinib, unda maktabgacha ta‘limga aloqador quyidagi tushunchalar keltirilgan:

maktabgacha ta‘lim tashkiloti — maktabgacha ta‘lim va tarbiya sohasida ta‘lim va tarbiya xizmatlari ko‘rsatuvchi davlat va nodavlat tashkiloti;

davlat maktabgacha ta‘lim tashkiloti — davlat tomonidan moliyalashtiriladigan va boshqariladigan hamda maktabgacha ta‘lim va tarbiyaning davlat standartiga muvofiq maktabgacha ta‘lim va tarbiya xizmatlari ko‘rsatuvchi tashkilot;

nodavlat maktabgacha ta‘lim tashkiloti — nodavlat ta‘lim xizmatlarini ko‘rsatish sohasidagi faoliyatni amalga oshirishga doir litsenziya asosida maktabgacha ta‘lim va tarbiya sohasida ta‘lim va tarbiya xizmatlarini ko‘rsatuvchi yuridik shaxs;

maktabgacha bo‘lgan yosh — bolalarning tug‘ilgan paytidan yetti yoshgacha, to ularga umumiy o‘rta ta‘lim tashkilotlarida ta‘lim berish boshlangan paytga qadar bo‘lgan yoshi;

maktabgacha ta‘lim va tarbiya — bolalarga ta‘lim va tarbiya berishga, ularni intellektual, ma‘naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o‘rta ta‘limga tayyorlashga qaratilgan uzluksiz ta‘lim turi [3].

Mamlakatda ta‘lim tizimini isloh etish natijasida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash, ya‘ni kadrlar salohiyatidan, ularning bilim va qobiliyatidan unumli foydalangan holda jamiyat hayotini yuqori darajada yaxshilashga erishish

ta'lim tizimida innovatsion pedagogik yondashuvning naqadar muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatib berdi [4; 79-84].

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta'lim-tarbiya jarayonining bir tizimga solingan ilmiy-nazariy va metodik asoslangan yangi shakl, usul va vositalarining majmuidir. Bunda yangi mazmun, shakl, usul va vosita uyg'unligida maqsad, vazifa, faoliyat va pedagogik natija yaxlitligi ta'minlanadi hamda o'quv maqsadlariga erishishni kafolatlaydigan o'quv jarayoni loyihalashtiriladi va amalga oshiriladi [5; 7-9].

Maktabgacha yoshdagi davrda bolaning intellektual imkoniyatlarini faoliyatning yetakchi ko'rinishlari orqali hamda ularning psixologik xususiyatlari: qiziqishlari, qobiliyatlari va xarakterini hisobga olgan holda ko'rib chiqish zarur. Insonning har tomonlama kamol topishi va psixik barqaror holatda o'sishi ko'p jihatdan uning maktabgacha yoshidagi davrida olgan ta'lim tarbiyasiga bog'liq bo'ladi. Aynan shuning uchun ham ushbu davrda bolalar bilan olib boriladigan ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llay samarali hisoblanadi.

Bugungi kunda jamiyatning barcha sohalariga zamonaviy IT texnologiyalarining integratsiyalashuvi o'ziga xos "smart" tizimlarning rivojlanishini ta'minlamoqda. O'z navbatida bunday rivojlanish Smart-ta'limda ham kuzatilmoqda. Smart-jamiyatning modeli zamonaviy axborot va tashkiliy tizimlar yordamida intellektual, yuqori texnologiyali, inson uchun qulay muhitni yaratishni nazarda tutadi. Borgan sari inson yangi bilimlarni egallab boradi va u bu bilimlarni axborot texnologiyalarisiz qo'llay olmay qoladi. Ta'limning asosiy maqsadlaridan biri Smart-texnologiyalar asosida zamonaviy ta'lim tizimini shakllantirish orqali sifatli ta'limga erishishdir [6;365-369].

"Integratsiya" so'zi lug'atlarda izohlanishicha lotincha "integratio" so'zidan olingan bo'lib, qayta qurish, tiklash, to'ldirish ("integr" - to'liq, butun, yaxlit) degan ma'noni anglatadi. Shuningdek, boshqa bir lug'atlarda "integratsiya" - o'zaro bog'langan holda rivojlantirish deyilsa, sohaviy lug'atlarda "integratsiya" - o'qitishning maqsad va omillarini bir butun qilib birlashtirish, deb izohlanadi [7; 83].

Intergativ yondashuv pedagogik jarayonning xohlagan tarkibiy qismida integratsiya tamoyilini ro'yobga chiqarishni nazarda tutadi hamda uning bir butunligini va tizimlilikini ta'minlaydi. Integrativ jarayonlar tizimning alohida elementlarini yoki butun tizimning sifat jihatidan qayta yaratilishi jarayonlaridir.

Integratsiya-bu mashg'ulotlarning differensial jarayon davomida yaqinlashuvi va bog'liqligidir. Integratsiya jarayoni mashg'ulotlar orasidagi aloqani yangi, yuqori sifatda bir-biriga bog'lash bosqichi bo'lib, o'zini yuqori ko'rinishida namoyon etadi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki integratsiya jarayoni asoslari uzoq o'tmishdagi xalq pedagogikasi va ilmiy pedagogikaga asoslangan.

Respublikamiz olimlari ham integratsion yondashuv bo'yicha bir qator izlanishlar olib borgan. Jumladan, X.Yulbarsova fanlarning nazariy taraqqiyotida differensial holat ham mavjud bo'ladi, integratsiya esa amaliyotda o'zaro bog'liqlikni bildiradi va u jarayonning ijtimoiy, pedagogik-psixologik ahamiyatini yanada ortishini ta'kidlaydi.

N. Ahmedova Integrativ yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishni tadqiq etgan bo'lsa, M.N.Irisbayeva ta'lim-tarbiya jarayonlarida tarixiy-milliy va zamonaviy pedagogik texnologiyalar integratsiyasi mavzusida ilmiy tadqiqot ishini olib borib, milliy-tarixiy va zamonaviy pedagogik texnologiyalarning evolyutsion taraqqiyoti hamda nazariy asoslarini yoritib bergan.

ЗАМОНАВИЙ ТИЛШУНОСЛИК ВА ТАРЖИМАШУНОСИЛИКНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

Mamlakatimizda ta'lim tizimida va ma'muriy boshqaruv sohasida olib borilgan izchil islohotlar doirasida maktabgacha ta'lim va xalq ta'limi tizimi integratsiya qilinib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi" tashkil etildi [8].

Maktabgacha ta'limni olib borishda samarli hisoblangan zamonaviy pedagogik



texnologiyalardan yana biri STEAM texnologiyalari hisoblanadi.

STEAM - hozirgi kunda dunyo ta'lim tizimining eng asosiy urf bo'lgan innovatsion metodlaridan biri hisoblanadi. Bir qaraganda STEAM abbreviaturasi juda murakkab ko'rinsada, aslida sodda va aniq ko'rinishga ega.

S – science (ilm-fan);

T – technology (texnologiya);

E – engineering (muhandislik);

A – art (san'at);

M – mathematics (matematika).

Oddiy so'z bilan aytganda, zamonaviy dunyoda eng ko'p talab etilayotgan fanlardir. Hech kimga sir emaski, ko'plab fan tarmoqlarida katta yutuqlarga erishish uchun o'zlashtiriladigan turli sohalaridagi bilimlarning integratsiyasi talab etiladi. Aynan shunday muammolarni hal qilishda STEAM texnologiyasi yordam beradi. Bu yondashuv kelajakda bolalarda hayotiy muammolarni hal etishda yordam beradi. Bugungi kunda STEAM – ta'lim dunyodagi asosiy tendensiyalardan biri sifatida rivojlanmoqda va amaliyot yondashuvni qo'llashda beshta sohani yagona o'quv sxemasiga integratsiyalashga asoslangan. Bunday ta'limning shartlari uning uzluksizligi va bolalarning guruhlarda o'zaro muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirish bo'lib, bunda ular fikrlarni to'plashi va fikrlar almashishi mumkin. Shuning uchun, asosiy ta'lim dasturiga quyidagilar: lego-texnologiyalar, bolalar tadqiqotlari kabi mantiqiy fikrlashni rivojlantirish modullari kiradi. STEAM yondashuvi tufayli bolalar tabiatni tushunib, dunyoni muntazam o'rganishadi va shu bilan qiziqishlarini, muhandislik fikrlash uslubini, tanqidiy vaziyatlardan chiqish qobiliyatini, jamoaviy ish qobiliyatini rivojlantirish va liderlik, o'z-o'zini namoyon qilish asoslarini o'rganishadi, o'z navbatida, bolalar rivojlanishining tubdan yangi darajasini ta'minlaydi. Faol muloqot va jamoaviy ishni tashkil etishni o'rgatadi.

Statistikaga ko'ra, 2011-yildan buyon STEAM-kasblarga bo'lgan talab darajasi 17% ga oshdi, oddiy kasblarga bo'lgan talab esa faqat 9,8% ga oshdi, bu esa butun dunyo bo'ylab ushbu ta'lim tizimiga katta talabni ko'rsatadi.

Ko'rinib turibdiki, maktabgacha yoshdagi bolalar ta'limida integratsion yondashuv samarali bo'lib, nafaqat ularning ta'lim va tarbiyasi balki, intellektual rivojlanishi va har tomonlama yetuk bo'lishini ta'minlaydi.

Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasida ta'kidlaganidek¹, ...butun jamiyatimiz a'zolarining bilimi,

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. "Xalq so'zi", 2020-yil 25-yanvar.

saviyasini oshirish uchun avvalo ilm-ma'rifat, yuksak ma'naviyat kerak. Ilm yo'q joyda qoloqlik, jaholat va albatta, to'g'ri yo'ldan adashish bo'ladi. Sharq donishmandlari aytganidek, "Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir!"[9] Shu sababli hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o'zlashtirish, chinakam ma'rifat va yuksak madaniyat egasi bo'lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. T. «Meros», 1993, - B.236.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'RQ-637-son, 2020-yil 23-sentyabr //Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020-y., 03/20/637/1313-son/<https://lex.uz/docs/501300>
3. O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuni, O'RQ-595-son, 2019-yil 16-dekabr // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 17.12.2019-y., 03/19/595/4160-son;/ <https://lex.uz/docs/501300>
4. Jurayeva T.I., Ismoilova G.T. Ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalar - taraqqiyot negizidir / "O'zbekiston iqtisodiyotini institutsional rivojlantirish: yutuqlar, muammolar, yechimlar" mavzusidagi ilmiy –amaliy konfrensiya materiallari to'plami / TDIU 2016-yil 12-mart.
5. Atabayeva, K.R. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ta'lim-tarbiya jarayonidagi ahamiyati/K. R. Atabayeva. // Yosh olim. 2017. - № 24.1 (158.1). - B. 7-9. — URL: <https://moluch.ru/archive/158/44574/> (Murojaat sanasi: 03.06.2023).
6. Umarova R.U. Ta'lim tizimida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati// "Science and Education" Scientific Journal // January 2021 / Volume 2 Issue 1. - B. 365-369.
7. Ruscha-o'zbekcha lug'at. – T.: Fan, 1983.; Hasanboyev J., To'raqulov X. va b. Pedagogika fanidan izohli lug'at. – T.: Fan va texnologiya, 2008.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-dekabrda "Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-269-son Farmoni, //Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 24.12.2022-y., 06/22/269/1117-son / <https://lex.uz/docs/501300>
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. "Xalq so'zi", 2020-yil 25-yanvar.
10. Najmiddinova, M. R., & Jalolova, S. M. (2021). CONTRASTIVE STUDY OF ENGLISH AND UZBEK PUNCTUATION RULES. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 2(06), 1-5.
11. BALANCES, O. S. W. O. C. ROOTABLE LAYER IN EXPERIMENTAL PRODUCTION SECTIONS. *Ozatboy Bazarovich Imamnazarov, Tokhirjon Olimjonovich Qosimov, Makhammadali Rustamjonovich Abdullaev ISSN*, 2349-0721.
12. IMAMNAZAROV, O. B., QOSIMOV, T. O., & ABDULLAEV, M. R. (2020). Balances Of Soil Waters Of Cotton Rootable Layer In Experimental Production Sections. *International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology*, 7(05), 318-321.
13. Jalolova, S. M., Otakulov, N. B., Urmonova, N. M., & Nazarova, D. O. (2022). MODERN METHODS AND TECHNOLOGIES IN ENGLISH LANGUAGE TEACHING. *International Journal of Early Childhood Special Education*, 14(4).
14. Odilov, B., & Karimov, N. (2022). COVERAGE OF ECONOMIC AND CULTURAL TRADITIONS IN THE YEARS OF INDEPENDENCE IN ETHNOLOGICAL RESEARCH (ON THE EXAMPLE OF THE FERGANA VALLEY). *International Journal of Early Childhood Special Education*, 14(3).
15. Имамнazarov, O. B. (1993). Регулирование мелиоративного режима при близком залегании слабоминерализованных грунтовых вод.
16. АГЗАМОВА, Д. Б. (2018). COGNITIVE ANALYSIS OF METAPHORIC PHRASES OF THE CONCEPT "MEMORY" IN THE ENGLISH AND UZBEK BELLES-LETTRES TEXTS. *Иностранные языки в Узбекистане*, (2), 94-100.
17. Odilov, B., & Karimov, N. Archaeological Research is an Important Source in the Study of Traditional Economic Activities of the Uzbek People (On the Example of Some Researchers of the Twentieth Century).
18. Makhammadovna, M. F., & Agzamova, D. B. (2021). Psycholinguistic studies of pre-wedding and wedding traditions (on the basis of English and Uzbek phraseological units). *Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry*, 12(7).

ЗАМОНАВИЙ ТИЛШУНОСЛИК ВА ТАРЖИМАШУНОСИЛИКНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

19. Shodmonov, A. (2022). Coverage of titles in Central Asian Hellenistic Sources. *Eurasian Journal of History, Geography and Economics*, 11, 24-26.
20. Abdullaeva, M., Jalolova, S., Kengboyeva, M., & Davlatova, K. (2021). Universal Human Values as Axiological Values. *REVISTA GEINTEC-GESTAO INOVACAO E TECNOLOGIAS*, 11(2), 802-816